

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ _____
2015 - yil «___» _____

Vazirlikning _____ 2015-yil
“___” _____dagi _____ - sonli
buyrug'i bilan tasdiqlangan

DIRIJORLIK

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi : 110000 - Pedagogika

Bakalavriat yo'nalishi: 5111100 - Musiqa ta'limi

TOSHKENT- 2015

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2015-yil "____" _____ - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy tahlim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar: Ilxomova M.R. - "Musiqqa ta'limi" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar: Lutfullayev A.K. – O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

Xalilov F.N.- Nizomiy nomidagi TDPU professori p.f.d.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan. (2015 - yil «____» _____dagi _____ – sonli bayonnoma).

KIRISH

Mazkur fan dasturi: 5111100 – Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabaning shu fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari minimumi asosiy tushunchalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tavsiya etilgan. Dasturda badiiy-ijrochilik tomonlarini puxta o'zlashtirilishiga, talabalarning qo'shiqlari repertuarini xilma-xil shakl va xarakterdagi rang-barang asarlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor berilgan.

Dirijyorlik fanida talabalar turli o'lchov, metr va uslublarda yaratilgan asarlarni tahlil qilish, unga to'g'ri dirijyorlik qilish, ularni xorga o'rgatish nazariyasi va amaliyotini o'rganadilar. Bu fan bo'lajak dirijyor, xor rahbari va musiqa o'qituvchisining shakllanishida qo'yiladigan barcha talablar hisobga olingan, hamda uni amaliy egallash uchun repertuarlar belgilab berilgani ko'zda tutadi.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi Dirijyorlik kursining asosiy **maqsadi** talabalarga dirijyorlik sirlarini o'rgatish jarayonida ularga ma'naviy-mafkuraviy tarbiya berish, g'oyaviy, badiiy estetik tarbiya berish, ularning badiiy-ijrochilik mahoratini o'stirish, dirijyorlik o'quvi va ko'nikmalarini shakllantirish, o'zbek va chet el kompozitorlari tomonidan yaratilgan eng nodir xor asarlari bilan tanishtirish, bu asarlarni professional darajada tahlil eta olish va unga dirijyorlik qila olish malakalarini rivojlantirishdan iborat. Fanning **vazifalari**: Dirijyorlik fani dars jarayonida quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsad qilib qo'yadi:

- talabalarni milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash va ularni dunyo standartlari talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassis qilib yetishtirish;
- talabalarning badiiy didini rivojlantirish, xor asarlarining badiiy qimmatini va ularning ijrosini to'g'ri baholay olishga o'rgatish;
- dirijyorlik texnikasining sirlarini o'rgatish, dirijyorlik malakalarini hosil qilish, interpretatsiya;
- musiqa pedagogikasining tizimlilik, izchilik, oddiydan – murakkabga o'tish, individual yondashish va guruh bilan muloqat o'rnatish kabi didaktik tamoyillariga amal qilishni o'rgatish;
- badiiy ijroning mukammal variantini oldindan eshita bilish va unga erishish ustida rejali ish olib bora olishga o'rgatish.

Dirijyorlikda gavda, qo'llar, yuz, ko'zlar, dirijyorning asosiy pozitsiyasi. dirijyorlik texnikasi va uning ahamiyati, dirijyorlik sxemasining (chizmasining) asosiy tamoyillari. Xor akkompanimeti, jo'rli xorni sozlash, akapella (jo'rsiz) partiya, partitura, klavir, auftakt (nafas), jest (qo'llar ifodasi), frazalarga (musiqiy jummalarga) bo'lish. Ritmik tuzilishning o'ziga xos xususiyatlari, notaga qarab o'qish, maktab repertuari tahlili.

Turli shakl, janr, uslub va uslub yo'nalishlaridagi repertuar to'planishi va badiiy ijrosini o'zlashtirish. Musiqiy-estetik madaniyatni shakllantirish, mustaqil ijod va mustaqil bilim olish malakalarini shakllantirish.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

- Bakalavr:

- dirijyorlik texnikasi;
- xor jo'rnavozligi;
- xor repertuari;
- ovoz apparatining tuzilishi;

- sahna asarlari va a`kapella asarlariga dirijyorlik qilishi **haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak.**

- "Dirijyorlik" qilish, xorda kuylash jarayoni, xor repertuarlarini optimal tanlash xorga dirijyorlik qilish texnikasi va xordagi ovozlar xususiyatiga ko'ra asarlarni ajratib olishni bilishi, **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**

- "Dirijyor" talabalar xorda tanlangan asarlarni qoidalar asosida kuylash, ovozlar xususiyatiga ko'ra disfoniyaga yo'l qo'yilmasdan ovozlar bilan alohida ishlash va xor jamoasiga rahbarlik qilib boshqara olish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatidan uzviyligi

Mazkur kurs fanlari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, musiqa tarixi, cholg'u ijrochiligi va ansambl, vokal ijrochiligi, musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari, an'aqnaviy va xalq qo'shiqchiligi, xo'r va xo'rshunoslik, dirijorlik kabi fanlar bilan uzviy bog'liqdir. Uning amaldagi qo'llanishi talabalarning vokal asoslari, xo'r dirijorligi, maqom asoslari cholg'u ijrochiligi va boshqa musiqiy fanlardan olgan bilim ko'nikmalariga asoslanadi.

Fanning ta'limdagi o'rni

Fan musiqa o'qituvchisini maktab akademik litsey, kasb – xunar kollejiga tayyorlashda asosiy o'rnini egallaydi. Fan nazariy va amaliy faoliyatni o'z ichiga olib, musiqiy ta'lim yo'nalishi talabalarini musiqa madaniyati o'qituvchisi amaliy faoliyatiga tayyorlaydi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umum kasbiy fan hisoblanib, shuning bilan birga ixtisoslik fanlari bilan ajralmas bog'liqdir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'rgatishdagi yangi pedagogik texnologiyalar hozirgi kun talabi – talabalarga bilim berishni tushuntirish, ustirish, bayon qilish orqali amalga oshirish bilan bir qatorda ko'proq ularning bilim olishga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'stirish hamda ularning mustaqil bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishni nazarda tutmoq zarurligini taqazo qiladi.

ASOSIY QISM

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar asarlar kuylash yo'llarini, texnika vositalari, CD, DVD, audiomagnitafonlar yordamida o'rganadilar. Amaliy mashg'ulotlar vaqtida qo'shimcha musiqiy disklar tavsiya etiladi: CD, DVD, MP3, musiqiy albomlar.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli o'lchovlarda xorda dirijyorlik qilish ko'nikmalarini egallaydilar. Amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular.

Dirijyorlik apparatini shakllantirish. Bosh, gavda, qo'l, oyoq, yelka, bilak, panja, holat xarakatlari.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

Oddiy dirijorlik o'lchovlari: 2/4: 3/4: 4/4:.

Dirijyorlikning asosiy elementlari – «diqqat», «nafas», «auftak-ijroni boshlash», ijroni tugatish (uzish).

Dirijyorlik harakatlarining asosiy tamoillari: erkinlik, sxema aniqligi, tejamligi, qiyofaning ifodaliligi.

Turli nyuanslarda dirijyorlik qilish.

Chap va o'ng qo'l vazifalari.

Dirijyorlik xarakatlaridagi kamchiliklarni tuzatish ustida ishlash.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

«Shamol eshik ochadi» - xalq qo'shig'i. Ayollar xori uchun B.Umidjonov moslashtirgan – 2/4.

«Yallama yorim» - Xorazm xalq qo'shig'i. B.Umidjonov qayta ishlashagan.

«Duhtari sanam» Vildanov musiqasi – 4/4.

«Illila yor» - tojik xalq qo'shig'i. B.Umidjonov xor uchun qayta ishlagan – 3/4.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishlar talabalar tomonidan mustaqil ijro shakli sifatida tashkil etiladi. Musiqiy kontsert dasturlari, teatr va sahna asarlarini kuzatish shakllari orqali o'rganilayotgan asarlar ustida ish olib boriladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardan tegishli bo'lim va mavzularni o'rganish;
- dirijyorlik mashg'ulotlarining tegishli qismi bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishish;
- fanning tegishli bo'limi bo'yicha maxsus adabiyotlar bilan ishlash;
- audio, video apparatura va ta'limning boshqa TV dan foydalanish;
- dirijyorlik asarlarini o'rganish va tahlil qilish;
- o'rganilayotgan bo'lim va mavzular bo'yicha o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish;
- ijodiy va muammoli o'quv topshiriqlarni bajarish.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlar mavzulari:

1. Dirijyorlik tarbiyasidagi asosiy musiqa- pedagogik printsiplari.
2. Tovush apparatining tuzilishi va xarakatlanishi.
3. Musiqa – badiiy va vokal-texnikaviy rivojining birligi.
4. Dirijyorlik pedagogikasining asosiy uslublari.
5. Dirijyorlikda nafas.
6. Dirijyorlikda orfoepiya
7. Tovush xujumi turlarining paydo bo'lish mexanizmi.
8. Tovush «tayanchi» tushunchasi. «Tayanch» sezgini topish uchun usullar.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fan o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi:

- musiqa o'qitish nazariyasi fani bo'yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;

- o'rganiladigan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disklar, CD, DVD, MP3 va magnetofon kassetalari;

- musiqiy yozilgan hujjatli disklar;

- Zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash; musiqa darslarida tarbiyaviy ishlarni olib borishga va musiqaga bo'lgan qiziqishni uyqota olishga, talabalarda badiiy ijrochilikni shakllanishiga, musiqiy did va bilimlarini kengaytirishiga asos bo'ladi.

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video – audio uskunalar- video va audiomagnetofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD – discovod, Web – camera, video ko'z.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Q.Mamirov. «Qo'shiqlar, xor asarlari». O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006 yil.
2. Л.И.Уколова «Дирижирование». Москва. 2003 год.
3. Б.А.Самарин «Хороведение и хоровая аранжировка». Учебная пособие. Москва. 2002 г.
4. G.Sharipova “Musiqa va uni o'qitish metodikasi” Toshkent 2006 yil

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O.Sodiqov. «Xor partiturasini o'qish». G'.G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2004 yil.
2. «Musiqqa ta'lim va ma'naviyat». Toshkent. 1998 yil.
3. K.Azimov. «O'zbekiston dirijyorlari». Toshkent. 2001 yil.
4. "O'zbekiston vatanim manim" to'plam 1, 2, 3, 4 qismlar. Toshkent, Mehnat, 1997

Elektron ta'lim resurslari

1. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped.](#)

